

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHAMSUTDINOVA NIGINA KARIMOVNA

ABU ALI IBN SINONING TASAVVUFİY QARASHLARI

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Shamsutdinova Nigina Karimovna

Abu Ali ibn Sinoning tasavvufiy qarashlari3

Шамсутдинова Нигина Каримовна

Суфийские взгляды Абу Али Ибн Сины33

Shamsutdinova Nigina Karimovna

The Sufi views of Abu Ali Ibn Sina67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHAMSUTDINOVA NIGINA KARIMOVNA

ABU ALI IBN SINONING TASAVVUFİY QARASHLARI

09.00.03 – Falsafa tarixi

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fal197 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Madayeva Shahnoza Amonullayevna
falsafa fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Boltayev Abdurahim Amonovich
falsafa fanlar doktori, dotsent

Turayev Baxtiyor Omonovich
falsafa fanlar doktori, professor

Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "6" yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (563 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "19" dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil "19" dekabr dagi 31 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
o'rinbosari, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi xalqaro maydonda hukm surayotgan murakkab, tahlikali jarayonlar, oqibatini bashorat qilib bo'lmaydigan ijtimoiy-siyosiy, madaniy o'zgarishlar, barqaror rivojlanishi yo'lidagi xavf-xatarlar, tahdidlar jarayonida ma'naviy merosga alohida e'tibor qaratish, u asosida jamiyatning manaviy va intellektual salohiyatini oshirish talab etilmoqda. Global madaniy taraqqiyotda, xususan, Sharq va G'arb falsafiy tafakkuridagi shaxsning axloqiy barkamolligi, qalb pokligi, fazilatlarini, ma'naviy komillik kabi tasavvufiy qarashlar bashariyat ravnaqida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi-nazardan, Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashlarining metodologik asoslari va g'oyaviy manbalarini, inson ma'naviy olamining yuksalishiga oid qarashlarining pragmatik xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida Sharq xalqlari tarixi, ma'naviy merosining ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati, ilmiy-nazariy va falsafiy merosi va islom madaniyati rivojida o'rni o'rniga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi falsafiy fikr rivojida muayyan tajriba to'planganligi va uning tadrijiy bardavomligi, hozirgi davrdagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etishi hamda uning falsafa tarixida ilmiy-nazariy ahamiyati insonning qalbini poklash, ma'naviy rivojlanishda namoyon bo'lib, jamiyatda ma'naviy tarbiyani shakllantirishga, insonning haqiqiy maqsadini tushunishiga yordam beradi. Shuni inobatga olib, Ibn Sino tasavvufiy qarashlarining davlatchilik taraqqiyotidagi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishdagi ahamiyatini, insoniyat ravnaqining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini belgilovchi ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalarini, komillikka erishishda mezon hisoblanadigan axloqiy sifatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda jamiyatda ma'naviy samaradorlik effektini yanada oshirish, ma'naviy tizimida diniy-ma'rifiy qadriyatlarni mazmunan boyitish, uning ta'sirchanligi oshirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Ma'lumki, ajdodlarimiz o'z vaqtida yuksak ma'naviyati, boy ilmiy merosi, ijodi bilan butun dunyoga ustozlik qilganlar. Yana bir bor aytaman, ular boshqalarga ergashmagan, boshqalarni o'z ortidan ergashtirganlar. ...Ushbu hal qiluvchi masalada befarq va loqayd bo'lish, zaiflik ko'rsatish jamiyatimiz va dinimizga nisbatan xiyonat qilish bilan barobardir. Bu fikr muqaddas kitoblarimizda takror va takror ta'kidlangan. ..., yoshlarga birinchi navbatda barcha dinlarning asosini tashkil etuvchi umuminsoniy qadriyatlar, xususan, yaxshilik, mehr-oqibat, sadoqat, saxovatpeshalik, bilim va hunar o'rganish kabi xislatlarni o'zlarida shakllantirib borishga alohida e'tibor qaratsalar, ayni muddao bo'lardi"¹. Shu maqsadda, Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan bugungi kunda tasavvuf falsafasidagi axloqiy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning jamiyat rivojida o'rni va ahamiyatini, komil inson g'oyasi, ayniqsa, Ibn Sino tasavvufiy asarlaridagi inson ma'naviy-ruhiy olamining yuksalishiga doir intellektual mohiyat kasb etuvchi nazariy g'oyalarining falsafiy mohiyati ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2023. –Б. 411.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son “Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466- son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida” hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Tasavvuf ta’limotining falsafiy-irfoniy g‘oyalarini tadqiqi etish va uning ijtimoiy ongga ta’sir etish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, University of Florida, University of Pennsylvania, University of Miami (AQSh), University of Oxford, London Business School (Angliya), Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), University of Vienna, Queensland University of Technology (Avstraliya), University of Brussels (Belgiya), University of Hamburg (Germaniya) · Navoiy davlat universiteti (O‘zbekiston), Islamic Supreme Council of America (AQSh), University of Western Ontario (Kanada), Disle university (Turkiya), Al-Azhar university (Misr, Qohira), School of Culture, religions and politley in Asia (Buyuk Britaniya), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Buxoro davlat universiteti,

² www.univie.ac.at; www.upenn.edu; www.qut.edu.au; www.ufl.edu; www.uni-hamburg.de; www.london.edu; www.miami.edu; www.ox.ac.uk; www.widener.edu; www.niversityofbrussels.com; www.spbu.ru; www.rgup.ru; www.msu.ru; <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <https://www.utoronto.edu>; <https://www.cbu.ca>; <https://www.unn.ru>; <http://library.fes.de/>; <https://www.ritsumei.ac.jp/> va boshqa elektron manbalar asosida tayyorlangan.

Самарқанд давлат университети, О‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, О‘zbekiston milliy университети, Toshkent davlat sharqshunoslik университети (О‘zbekiston) tomonidan fundamental tadqiqotlar tomonidan olib borilmoqda.

Jahon falsafasi tarixida Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri, teologiya, metafizika masalalari bo‘yicha turli darajadagi ilmiy natijalar olingan: jumladan geometrik tengligi masalalari asoslangan (School of Culture, religions and politsy in Asia, Buyuk Britaniya); olamning kelib chiqishi, shakllanishi jarayonini aniqlash, o‘zaro ta’sir va aloqadorlik masalalari ilmiy dalillangan (Moskva davlat университети, Rossiya); borliqni ilohiy vujud va tabiat tashkil etishi, borliqni yaxlit birlik sifatida bilishga oid gnoseologik va ontologik ta’limotlarning rivojiga ta’siri (Al-Azhar university, Misr, Qohira); insonning jismoniy tuzilishi, hayoti, tabiat va axloqi ijtimoiy muhitga bog‘liqligi xususidagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari (University of Hamburg, Germaniya); mutafakkir falsafiy-irfoniy qarashlaridagi sabab bilan oqibat, imkoniyat bilan voqeylik, miqdor bilan sifat, jamiyat bilan tabiatning yaxlitligi o‘zaro aloqadorligi (University of Pennsylvania, AQSh), (Navoiy davlat университети, О‘zbekiston).

Dunyoda Abu Ali Ibn Sino falsafiy qarashlari bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni olib bormoqdalar: Markaziy Osiyo xalqlarining jahon hamjamiyati bilan madaniy, diniy, etnodemografik jihatlarini asoslash, milliy-madaniy munosabatlarining ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri ochib berish; tasavvuf ta’limotining ma’naviy mohiyatini o‘rganish, so‘fiylik ta’limotlari namoyandalarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari va tasavvuf g‘oyalarining inson kamolotiga ta’sirini aniqlash; Abu Ali Ibn Sino falsafiy qarashlarining irfoniy hamda ilm, hikmat, mushohada va ma’rifatga undovchi komillik mezonlarining inson ma’naviy taraqqiyotiga ta’sirini tadqiq etish, tasavvuf ilmiga ratsional yondashuvni aniqlash, tasavvuf va uning o‘ziga xosligi, u asosida shakllangan tariqatlar, oqimlar, ularning falsafiy masalalari; tasavvufda falsafiy-irfoniy qarashlarning dunyoni bilish hamda diniy bag‘rikenglikning ochib berishiga oid; inson muammosi va uning ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy o‘ziga xosliklari; tasavvufiy ta’limotlar tarixini yanada boyitishda Markaziy Osiyo mumtoz tasavvuf tariqatlari ma’naviy-axloqiy g‘oyalarining insonparvarlik ahamiyatini asoslash; Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari rivojiga Ibn Sino tasavvufiy g‘oyalarining ta’sirini ochib berish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashlari falsafa tarixining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uning qo‘lyozma manbalari, tasavvufiy kategoriyalar mutafakkir falsafiy ijodining obyekti bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Ibn Sino irfoniy qarashlarning shakllanishida mutafakkir yashagan ilm ahli vakillari muhim ahamiyat kasb etgan³.

³ Ибн Сино. Ал Илоҳиёт (Метафизика) . 1076 х.й..АН РУз фонд ВИ инв №3006./ СБР.ІІІ. Ташкент 1953, с 40-41.; Ибн Сино. “Уржуза фи-Тиб” из 1322 байтов. СБР. АН РУз фонд ВИ инв. т.V, Ташкент, 1960. с. 272, №3919.; Ибн Сино . Китоб ул- Ишороти. РУз Ан фонд ВИ инв №2213, 11 б. II ыарак. ; Ибн Сино . Рислоилу хукамо. РЎз Ан фонд ВИ инв №2385, ыарак 101 б.-103 б.; Ибн Сино Тафсир китоб “Услужие” мин ал ансоф. (“Ансоф”. Часть книги Коментарии на на произведении Аристотеля). РУз фонд АН инв №2385/ XXIX.; фонд РУз АН ВИ инв №2385/ XXIX. ; Ибн Сино. Китоб ал ишорот ф-ил мантик в-ал хикмат.1340 м.й. РУз АН фонд ВИ инв №2213./ СБР т.5 . Ташкент 1960, с.383, № 4103.; Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот хақида. –Тошкент: Ёзувчи, 2002. –Б.62; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Ёзувчи, 1993. –224 б.; Ал-Фараби Абу Наср Мухаммад. Трактат о жителей добродетельного города / Пер.с араб. И.О. Мухаммеда, А.В.Сагдеева // Ал-Фараби. Философские трактаты. - Алма-Ата: Наука, 1971. — С. 191-377.; Ал-Фараби Абу

Xorijiy olimlar S.M. Afnan, Carra de Vaux, F.Ch.Copleston, L.Gardet, E.Gilson, A.M.Goichon, A.G. Judy, F.Rahman, M.Suini, Sh.Osman ilmiy tahlillari Ibn Sino tasavvufiy qarashlaridagi ruh, jon, inson tushunshalarini to'g'ri anglashda, uning ontologik qarashlarini metafizika doirasida tizimli o'rganish lozimligi xususida bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga F.Rouzental, Dj.Trimingem, D.A.Knish, E.Karimov, E.Karl, Usmon Turar tadqiqotlari Ibn Sino tasavvufiy qarashlarining mazmun mohiyatini ochib berishda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan E.Bertels, A.M.Bogoutdinov, A.V.Sagadeyev, M.S.Asimov, M.N.Dinorshoyev, U.Sultanov, A.Smirnov, V.V.Sokolov, M.T.Stepanyans, G.G. Mayorov, Y.A.Frolov kabi olimlar Abu Ali ibn Sino merosini o'rganish va ommalashtirishda ulkan hissa qo'shishgan. A.Gretskiy, R.G.Sadikov, S.A.Sultonov, A.K. Zakuyev izlanishlarida Ibn Sinoning falsafiy qarashlari ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etuvchi fanlararo kompleks xarakterga ega ekanligi ta'kidlangan⁵.

O'zbek olimlari I.Mo'minov, M.Xayrullayev, M.Baratov, A.Sharipov, O.Fayzullayev, R.Nosirov, N.Komilov, A.Irisov, B.To'rayev, Sh.Madayeva,

Наср Мухаммад. Историко-философские трактаты / Пер.с араб. — Алма-Ата: Наука, 1985. - 623 с.; Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. Т.1. -Тошкент: Фан, 1968. —468 б.; Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон / Танланган асарлар. Т.II. -Тошкент: Фан, 1965. -727 б.;

⁴ Afnan S.M. Avicenna. His life and works. London, 1958; Carra de Vaux B. Avicenne. Amsterdam, 1974.; Carra de Vaux. Avicenne (Les grands philosophes). - Paris : Felix Alcan, 1900.VII u. 302; Copleston Frederick C. A History of Medieval Philosophy. Methuen & Co LTD, 1972; Gardet L. La pense'e religieuse d'Avicenne (Ibn Sina). Paris, 1951; Жильсон Э. Философия в Средние века. От истоков патристике до конца XIV века. М., 2004; Goichon A.M. La Philosophie d'Avicenne et son influence en Europe médiévale. Paris, 1951.; Goichon A.-M.. La distinction de l'essence et de l'existence d'après Ibn Sina (Avicenne). Paris: Paris: Desclée de Brouwer, 1937.546 p.; Judy A.G. The use of Avicenna's Metaphysics, VIII, 4 in the Summa contra gentiles. Rome, 1969; Rahman F. Essence and existence in Avicenna // Mediaeval and Renaissance studies, vol. IV. London, 1958; Суини М. Лекции по Средневековой философии / Выпуск I / Средневековая христианская философия Запада (Перевод Лявданского А.К.). М.: Греко-Латинский-Кабинет, 2001; Osman Chanine. Ontologie et théologie chez Avicenne. - Paris: Maisonneuve, 1962. - 184 p. ; Carra de Vaux. Avicenne (Les grands philosophes). - Paris : Felix Alcan, 1900.VII u. 302 ; Роузенталь Ф.Торжество знания. – Москва. Наука,1978.373с.; Тримингэм Д. Суфийские ордена в исламе. -Москва, Наука, 1989.;Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / Пер. с англ. М. Г. Романов. СПб.:«Издательство “ДИЛЯ”, 2004. — 464 с.;Каримов Э.Э. Суфийские тарикаты в Центральной Азии XII - XV вв.: Дисс... док.ист.наук. Тошкент,1998; Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Таржимон Н.Хасан. Тошкент, Истиклол, 1999. –Б. 104-106.; Эрнест Карл. Суфизм // Перевод с английского М. Горького. – М.,ФАИР – ПРЕСС. 1997.

⁵ Бертельс Е. Э. Авиценна и персидская литература // История литературы и культуры Ирана. Избр. произв. М.: Наука, 1988.-С. 241-260.; Богоутдинов А.М. Очерки по истории таджикской философии. Сталинабад, 1961; Сагадеев А.В. Ибн-Сина (Авиценна). М.: Мысль, 1985; Асимов М.С. Восток – Запад: проблема преемственности в развитии философии (Методологические и мировоззренческие проблемы истории философии). М.: Наука, 1988; Диноршоев М.Н. Натурфилософия ибн Сины. Душанбе, 1985; Султанов У. Философские, социально-этические взгляды Абу Али ибн Сины. Душанбе, 1980 ¹⁵ Завадовский Ю.Н. Абу Али ибн Сина. Ташкент, 1958; Смирнов А. Что стоит за термином «Средневековая арабская философия» // Средневековая арабская философия. Проблемы и решения. М., 1998; Соколов В.В. Средневековая философия. М., 1979; Степанянц М.Т. Восточная философия. М.: Восточная литература РАН, 2001; Майоров Г.Г. Формирование Средневековой философии. Латинская Патристика. М.: Мысль, 1979; Фролова Е.А. Проблема веры и знания в арабской философии. М.: Наука, 1983; Грецкий А. Проблема антропологии в философских системах Ибн Сины и Ф.Аквинского; Автореф. дисс. кандидата филос. наук. Душанбе, 1990.-30с.; Садыков Р.Г. Человек и мир в философии Ибн Сины: Дисс. ...канд.ф.наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 2000. -165 с., Султонов С.А. Ибн Сина в философской традиции Франции:Дисс. ...канд.ф.наук. – Душанбе: Таджикский государственный педагогический университет им. Садриддина Айни, 2012. - 171 с.; Закуев А. К. Психология Ибн Сины. Баку : Изд-во Ан АЗССР, 1958.87 с.; Фролова Е.А. Проблемы веры и знания в арабской философии. — М.: Наука, 1983. — 168 с.;

K.Shodmonov, SH.Ziyodov, X.Yu.Salomova ⁶ o'z tadqiqotlarini Ibn Sino naturfilosofiyasi va unda inson tushunchasining metodologik tahliliga, hamda tafakkur shaklining ijtimoiy-gnoseologik tasnifiga bag'ishlashgan. G.Navro'zova, B.Namozov, A.Xuseynova, N.Safarova, M.Xodjiyeva, A.Boltayev, F.Muzaffarov⁷ tadqiqotlariga Ibn Sinoning tasavvuf nazariyasiga oid qarashlari Markaziy Osiyo XI-XVI asrlar tasavvuf ta'limotining takomillashuvi va tizimli rivojlanishida intellektual ta'siri mavjudligini kuzatish mumkin. So'nggi yillarda Ibn Sinoning mantiqqa oid qarashlari O.Majidova, D.Fayzixodjayeva, teologik qarashlari R.Isakdjanovlarning dissertasiyalarida tadqiq etilgan⁸.

Yuqoridagi tarixiy va zamonaviy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar tahlili, mavzu doirasidagi muammoning yaxlit tizim sifatida yoritilmaganligini ko'rsatadi. Shu bois mazkur tadqiqot ishida Ibn Sino asarlaridagi tasavvufiy qarashlarni yaxlit kompleks tarzda o'rganishga, tarixiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishga, mohiyatini ochib berishga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026-yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ibn Sino tasavvufiy qarashlarining inson aqliy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ibn Sino tasavvufiy qarashlarini ruhiy kamolotning, inson ma'naviy-ruhiy olami bilan bog'liqlikda tadqiq etish;

⁶ Беруни и Ибн Сина. Переписка / Отв. ред. И.М. Муминов. Ташкент: Фан, 1973. - 36 с.; Хайруллаев М. М. Фараби и Ибн Сина. — Абуали ибн Сина. К 1000- летию со дня рождения. Ташкент, 1980.— С.55-59; Баратов М.Б. Великий мыслитель Абу Али Ибн Сино. Т.: Фан, 1980. — С.248.; Шарипов А. Д.Философская переписка Беруни и Ибн Сины. // Вопросы философии.- 1978, № 10.; Файзуллаев А. Ф., Насыров Р.Н. Вопросы истины в философской дискуссии Беруни и Ибн Сины. - Общественные науки в Узбекистане, 1970,№6.-С.18-32.; Ирисов А. Литературное наследие Ибн Сины (источник, своеобразие художественного творчества). Дис.... д-ра филолог. наук —Т., 1996. — 288 с.; Файзиходжаева Д. IX-XII асрларда Марказий Осиё мутафаккирларининг мантикка оид қарашларида исботлаш муаммолари. Фал. фан. ном. ... дисс.—Тошкент, 1999. —152 б.; Madaeva Sh. A. Islamic law and its historical identification features. Jcar Journal Of Central Asian Renaissance / Social sciences. // Tadqiqot.uz volume 2 issue 1. 2021. — Б. 16-28. <http://tadqiqot.uz>; Шадманов К. Английская духовность и язык. - Дюссельдорф: Издво Lambert, 2015. - С. 264.; Саломова Х.Ю. , А.Ш. Иноятлов, Саломова Н.М. Ибн Синонинг тиббий илмий меъроси. Самарканд. 2021.-Б.176.;

⁷ Наврӯзова Г. Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий меъроси. – Тошкент: “Фан”, 2021.; Намозов Б. Б. Муҳаммад Порсо тасаввуфий таълимотининг фалсафий асослари. фал.фан. док. (DSc) Дисс... Самарканд,2020.—Б.234.; Хусейнова А. Абдурахмон Жомийнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. фал.фан.ном. Дисс... Тошкент,1994.-Б.140; Сафарова Н.О. “Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи” .фал.фан.ном. Дисс... Тошкент,2002.-Б.134; Хажиева М. Хожа Аҳмад Ясавийнинг маънавий-маърифий қарашларининг тарбиявий аҳамияти.—Тошкент: Muharrir, 2012.— 134 б.; Boltayev A. Muhyiddin Ibn Arabiyning ijtimoiy falsafiy qarashlari. Fals.fan. bo'yicha fals. doktori (DSc) diss.—Buxoro, 2024.; Музаффаров Ф. Ғаззолийнинг инсон ҳақидаги таълимотининг илмий-фалсафий асослари.Фалс.фан. бўйича фалс. доктори (PhD) дисс.—Самарканд, 2018.—135 б.;

⁸ Файзиходжаева Д. IX-XII асрларда Марказий Осиё мутафаккирларининг мантикка оид қарашларида исботлаш муаммолари. Фал. фан. ном. ... дисс.—Тошкент, 1999. —152 б.; Исақджанов Р.Р. Сино теологик таълимотида гносеологик тамойилларФалс.фан. бўйича фалс. доктори (PhD) дисс.—Тошкент, 2020. —145 б.; Хандамова М. Абу Райхон Берунийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. фал.фан. док. (DSc) Дисс... Самарканд,2021.Б.234.; Мажидова О. Абу Али ибн Сино фалсафасида ҳақиқатга эришишнинг мантикий концепцияси. Фалс.фан. бўйича фалс. доктори (PhD) дисс.—Тошкент, 2020. —42 б.

Abu Ali Ibn Sinoning emonatsiya, komil inson, fazoviy harakat, mutlaq mavjudlik va sof yaxshilik, ilohiy mutlaq kabi tasavvufiy g'oyalarining tasavvufning rivojlanishidagi nazariy ahamiyatini ochib berish;

mutafakkirning tasavvufiy asarlaridagi irfoniy konsepsiyalarni tahlil etish;

Ibn Sino tasavvufiy qarashlaridagi strukturaviy o'zaro aloqadorlik va muhabbat kategoriyasi asosida so'fiy axloqiy sifatlarida irfoniy tizim mavjudligini asoslash;

Ibn Sino tasavvufiy ta'limotida insonning aqliy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos intellektual mohiyat kasb etuvchi tasavvufiy-axloqiy g'oyalarning ijtimoiy ahamiyatini ochish berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlariga doir asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Ibn Sino tasavvufiy ta'limotining nazariy va metodologik mohiyatini tarixiy-falsafiy tadqiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, sinergetik va funksional tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashli shakllanishining metodologik asoslari va g'oyaviy manbalari "Solmon va Ibsol", "Hay ibn Yaqzon", "Al Ishorat va-t-tanbehat", "Risola fi-l-ishq", "Risalat at tayr" kabi tasavvufiy asarlaridagi ruh, ma'naviy olamning manguligi, insonning ilohiy Mutlaq (fano fillah) bilan birlashishi, vojib-ul-vujud kabi tasavvufiy konsepsiyalar bilan gnoseologik aloqadorligi aniqlangan;

Ibn Sino tasavvufiy qarashlari yunon ilm fani va musulmon olami madaniy an'analiriga xos rasional mohiyatga asoslanganligi hamda mutafakkirning koinot (makrokosm), inson (mikrokosm) orasidagi ruhiy uyg'unlik, oliy aqlning namoyon bo'lishi, inson ma'naviy-ruhiy olamining yuksalishi kabi tasavvufiy tushunchalar bilan o'zaro dialektik aloqadorlikda ekanligi asoslab berilgan;

Abu Ali Ibn Sinoning tasavvuf rivojiga qo'shgan hissasi "Mabda' va Ma'ad", "Me'rojnoma" asarlaridagi Yaratuvchi bilan yuzlashish, emonatsiya ko'tarilish chizig'i, komil inson, fazoviy harakat, fazoviy ruhlarning ilohiy mutlaqqa (al-vujud al-mutlaq) va sof yaxshilikka (al-xayr al-mahz) intilishi kabi irfon kontekstidagi g'oyalari asosida isbotlangan;

Ibn Sino tasavvufiy qarashlaridagi muhabbat kategoriyasi asosida mahbubga (Haq) oshiqning ichki botiniy muhabbati hamda komillikka erishishda egallangan bilim orqali axloqiy sifatlarini shakllantirishi G'arbga (moddiy olamga), Sharqqa (ruhiy) olamga sayohat, barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning Yaratguvchi bilan birlashish xususiyatlari ochib berilgan;

Ibn Sino tasavvufiy ta'limotida insonning aqliy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos intellektual mohiyat kasb etuvchi nazariy g'oyalari hamda faol ong, komil insonni shakllantirishda axloqiy va ruhiy kamolotning dialektik uyg'unligi kabi metodologik va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi pragmatik qarashlarining tasavvufiy-falsafiy mohiyati aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibn Sino ing tasavvufiy qarashlaridagi shariat va ma'rifat yo'lidani ruhiy

ma'rifatga erishish, Allohni anglash, ma'rifatga erishishni yuqori darajada qadrlash, insonning ichki hamda tashqi rivojlanishi, aqliy rivojlanish g'oyalari ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda, ruhiy poklanish va yangilanishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

mutafakkirning falsafiy qarashlarida insonning ruhiy olami va moddiy dunyo orasidagi munosabatlar, tabiat va ma'rifat orasidagi aloqadorlik olamga o'zgartirish kiritish xususiyatiga ega ekanligi, ijtimoiy hayot va ma'naviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirilgan;

Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarida ilgari surilgan ma'rifat va ma'naviy rivojlanish (aql va ruhiy tajriba, haqiqiy bilim va ruhiy poklanish) inson ruhi va aql uyg'unligi (aql va ruhning bir-birini to'ldirishi) nur va ma'rifat (ichki tuyg'ular va aql muvofiqligi, ma'rifatga erishish uchun ruhning yangilanishi) ma'naviy poklik va axloq (axloqiy kamolot va ma'naviy soflikning ruhiy taraqqiyotga bog'liq ekanligi) prinsiplar insoniyatning ma'naviy rivojlanishida murakkab va aniq yo'lni belgilaganligi isbotlangan;

alloma tasavvufiy qarashlarining amaliy ahamiyati insonning ruhiy sog'lig'i, hayotga munosabati va ichki tinchlikka erishish yo'llarini belgilaganlikda, bilim va tajriba integratsiyasida, jismoniy va ma'naviy yuksalish, tabiatga ma'naviy munosabat o'rnatishda, axloqiy to'g'rilik, ijtimoiy faollik, adolat va insoniyatga xizmat qilishda namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziy Osiyo tasavvufiy ta'limotlari, Ibn Sino manaviy-axloqiy qarashlarini yanada chuqurroq va xolisona o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, shuningdek tarbiya va ta'limni uzluksiz asosda tashkil etishda, yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma'naviyat va ma'rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning buyuk olim asarlari asosida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kitoblar, risolalar nashr etish, OAVda dasturlar tayyorlashda, oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarining komil inson tarbiyasi, muhabbat, yaxshilik, o'zaro hurmat, ustoz-shogird munosabatlari kabi yuksalish va farovonlikni

ta'minlashga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatida, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi amalga oshirish, shuningdek, ijtimoiy fanlar uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashli shakllanishining metodologik asoslari va g'oyaviy manbalari "Solmon va Ibsol", "Hay ibn Yaqzon", "Al Ishorat va-tanbehat", "Risola fi-l-ishq", "Risolat at-tayr" kabi tasavvufiy asarlaridagi ruh, ma'naviy olamning manguligi, insonning ilohiy Mutlaq (fano fillah) bilan birlashishi, vojib-ul-vujud kabi tasavvufiy konsepsiyalar bilan gnoseologik aloqadorligiga oid ilmiy yangilik, xulosa va taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining 2023-2024-yillarda efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 30-apreldagi 04-36-570-son ma'lumotnomasi). Natijada, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Ibn Sino axloqiy-falsafiy merosidagi tasavvufiy qarashlarining gumanistik mohiyati, shuningdek, uning hozirgi kundagi yoshlar tarbiyasidagi zaruriy ilmiy asoslangan hamda ayni paytda ommaviy axborot vositalari tizimidagi islohotlar jarayonida ko'rsatuvlarning sifati va ssenariylarning mazmunini boyitishga va ko'rsatuvlarning samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

Ibn Sino tasavvufiy qarashlari yunon ilm fani va musulmon olami madaniy an'analiriga xos ratsional mohiyatga asoslanganligi hamda mutafakkirning koinot (makrokosm), inson (mikrokosm) orasidagi ruhiy uyg'unlik, oliy aqlning namoyon bo'lishi, inson ma'naviy-ruhiy olamining yuksalishi kabi tasavvufiy tushunchalar bilan o'zaro dialektik aloqadorlikda ekanligiga oid ilmiy-nazariy tahlillar, falsafiy xulosalar va taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi faoliyatida, 2020-2024-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturida keltirilgan "VI. Ma'naviy- ma'rifiy sohadagi ustuvor yocnalishlar" 6.3. Milliy, tarixiy-ilmiy madaniyat va manbalarni o'rganish va targ'ib etish "Buyuk ajdodlarimizning ilmiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy asarlari va qo'lyozmalarini tadqiq qilish"da foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 29-apreldagi 02/02-25-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya faoliyatida tizimdagi xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda mafkuraviy targ'ibot ishlari samarasining oshishiga xizmat qilgan;

Abu Ali Ibn Sinoning tasavvuf rivojiga qo'shgan hissasi "Mabda' va Ma'ad", "Me'rojnoma" asarlaridagi Yaratuvchi bilan yuzlashish, emonasiya ko'tarilish chizig'i, komil inson, fazoviy harakat, fazoviy ruhlarning ilohiy mutlaqqa (al-vujud al-mutlaq) va sof yaxshilikka (al-xayr al-mahz) intilishi kabi irfon kontekstidagi g'oyalarga doir yangilik va ilmiy tahlillardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy

qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish" targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 14-oktabrdagi 10/114-son ma'lumotnomasi). Natijada, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini samarali tashkil etish va Abu Ali Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil etishga xizmat qilgan;

Ibn Sino tasavvufiy qarashlaridagi muhabbat kategoriyasi asosida mahbubga (Haq) oshiqning ichki botiniy muhabbati hamda komillikka erishishda egallangan bilim orqali axloqiy sifatlarni shakllantirishi G'arbga (moddiy olamga), Sharqga (ruhiy) olamga sayohat, barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning Yaratguvchi bilan birlashish xususiyatlariga oid ilmiy xulosalar va tavsiyalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatida, jumladan, Ibn Sino haqidagi 10 fakt risolalarini tayyorlash hamda buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va ilmiy merosi asosida tayyorlangan xalqchil risolalar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 4-oktyabrdagi 02/424-son ma'lumotnomasi). Natijada, allomalar haqida 10 ta fakt loyihasi doirasida Abu Ali ibn Sino haqidagi 10 ta faktni tayyorlashda hamda buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va ilmiy merosi asosida tayyorlangan xalqchil risolalar yaratishga, ommalashtirishga xizmat qilgan;

Ibn Sino tasavvufiy ta'limotida insonning aqliy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos intellektual mohiyat kasb etuvchi nazariy g'oyalari hamda faol ong, komil insonni shakllantirishda axloqiy va ruhiy kamolotning dialektik uyg'unligi kabi metodologik va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi pragmatik qarashlarining tasavvufiy-falsafiy mohiyati aniqlangan yangilik va nazariy xulosalardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997-raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbivalashning muammolari" amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024-yil 26-iyundagi 263-son ma'lumotnomasi). Natijada, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Ibn Sino falsafiy merosidagi tasavvufiy qarashlarning ijtimoiy mohiyati, shuningdek, mazkur jarayondagi potensial imkoniyatlari ilmiy asoslangan hamda hozirgi davrdagi milliy ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi isbotlab berilganligi asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, bitta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 15 ta ilmiy maqola (11 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 194 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflab berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi, **«Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashli shakllanishining metodologik asoslari»** deb nomlangan. Unda buyuk olim Abu Ali Ibn Sino diniy-falsafiy qarashlarining g‘oyaviy asoslari keltirilgan. Markaziy Osiyo falsafasini o‘rganishda MDH davlatlari olimlaridan M.S.Asimov, N.Baratov, M.N.Boltayev, A.D.Djaxid, Yu.D.Jumaboyev, M.Dinorshoyev, A.K.Zakuyev, A.X.Qosimjonov, S.K.Satibekova, Ye.A.Frolova, M.M.Xayrullayev, Stepanyans, A.Sagadeyev, G.B.Shaymuxambetova, A.Sharipovlar kabilarni keltirish mumkin. X-XI asr Markaziy Osiyo falsafasi gnoseologiyasi deganda Ibn Sino, Beruniy kabi buyuk daholar falsafasini misol keltirish mumkin. Sho‘rolar davri falsafa maktabi mazkur daholarni iloji boricha moddiyunchi (materialist) qilib ko‘rsatishga, kerak bo‘lganda, din tanqidchisi qilib ko‘rsatishga harakat qilganini inkor eta olmaymiz.

M.N. Boltayev Ibn Sino va uning izdoshlari olamni bilishda gnoseologik yondashuvga qat‘iy amal qilganliklarini aytadi. Ibn Sino “aql al-faol” faol aqlning mavjudligini tasdiqlaydi, deb tushuntiradi. Shunday qilib, individual ruhning asosiy kuchi potentsial ongdir. Boshqa tomondan, faol ong individual ruhdan mavjud bo‘lgan tamoyil. Bu faol ong hamma odamlar uchun umumiy va yagonadir. Ibn Sino mumkin bo‘lgan aqlni faoldan ajratib, ikkinchisining tanadan tashqarida mavjudligini taxmin qildi va tasavvufga yo‘l berdi, to‘g‘rirog‘i, tasavvuf nazariyasi⁹ pozitsiyasiga o‘tdi.

Dunyoning yaratilishi, mavjudligi, abadiyligi va ibtidoiyligi muammosini tadqiq etgan olim A.M.Guachon “Ibn Sino falsafasi va uning o‘rta asrlar Yevropasiga ta’siri” kitobining “Ibn Sino falsafasining asosiy tezislari” deb nomlangan birinchi bobida mutafakkir metafizikasiga, xususan, uning yaratish nazariyasiga bag‘ishlangan qismida keltirib otadi¹⁰. Guachonning so‘zlariga ko‘ra¹⁰, yaratilish musulmonlar uchun ham, nasroniylar uchun ham muhim masala, yunon butparastligi esa bu masalani batafsil ko‘rib chiqmagan. Shu sababli, Aristotel

⁹ Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн-Сины и его школы. - Душанбе: Ирфон, 1965.-С. 11.

¹⁰ Bu haqda: Goichon A.-M. La philosophie d'Avicenne et son influence en Europe Médiévale. P. 33.

metafizikasida mumkin bo'lgan mavjudotlarning kelib chiqishi muhokama qilinmaydi.

Guachon¹¹ fikricha, Ibn Sinoning olamni yaratilish nazariyasida so'fiylik g'oyalarining mavjudligini kuzatish mumkin. Guachonning ta'kidlashicha mutafakkir qarashlarida yaratuvchi zotning mohiyati uning qudrati hamda, yaratuvchini – sof ong deb bilgan g'oyalari muhim nazariy natijadir. Yaratilish undan (yaratuvchi) kelib chiqadi. Lekin birinchi navbatda, uch turdagi intellektual oqim sifatida ko'rinadi. Bu oqim uning ongiga ergashadi, chunki zaruriy mavjudot yaratilgan narsani muhokama qiladigan ongdir. Shunda u faqat sof ongga bevosita mavjudlikni beradi; nihoyat, undan kelib chiqadiganlar komillikdir.

Usmon Shanin o'z asarining alohida bobini "Yaratilish" nomli beshinchi bobini Ibn Sino falsafasidagi yaratilish muammosiga: mangulik muammosi, olamning manguligi, olamni yaratilishida Xudoning vijdoni kabi muammolarga bag'ishlaydi. Bu bobda asosan ilohiy muammolar va emanatsiya muammosiga bagishlangan. Bobning "Xudo" deb nomlangan kichik bo'limida, Yaratuvchi va koinotning abadiyligi haqida fikr boradi. Sof ontologik zaruratga aylangan Xudo Ibn Sino metafizikasida ezgulik tartibini rivojlantiruvchi ekanligi namoyon bo'ladi.

Dissertant fikricha, Ibn Sino tasavvuf falsafasida nafs haqidagi o'ziga xos nazariyasi bilan shuhrat qozondi. U nafsning borligi, abadiyligi va vujudga bog'liqligi masalalarni hujjat va dalillar bilan isbotlab berdi. Ibn Sinoning yozgan asarlari ilm-ma'rifatning barcha sohalarini qamrab olgan. Olim asarlarining soni ikki yuzdan ortib ketgan. Shuning uchun ham Ibn Sinoning asarlari turli fan yo'nalishida o'rganilmoqda. Jumladan:

- *Falsafaga oid kitoblar*: "Ash-Shifo" - asl nusxa qo'lyozmasi o'n sakkiz juzdan iborat. Olimni uzoq vaqt davomida yozgan "an-Najot" – avval zikr qilingan kitobning muxtasari. "Al-Ishorotul Islohiya". "Hikmatul aruz". "Uyunul hikmati".

- *Mantiqqa oid kitoblar*: "Al-Mujaz al-Kabir fil mantiq", "Al-Avsat fil mantiq", "As-Sag'ir fil mantiq".

- *Tibbiyotga oid kitoblar*: "Al-Qonun fit-tib", "Al-Urjuza fit-tib" va boshqalar.

- *Tasavvufga oid kitoblar*: "Solmon va Ibsol", "Hay ibn Yaqzon", "al Ishorat va-t-tanbehat", "Risola fi-l-ishq", "Risolat at tayr" "Hikmatul mavt", "Al-Hikmatul Mashriqiya", "Me'rojnom" yoki "Murshid-ul-kifoya".

Shu bilan birga, zuhd va tasavvufga oid bir qancha qasidaları ham borligi ko'rsatib o'tilgan.

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo'nalishlar birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo boy falsafiy, ilmiy, diniy merosini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etib, bu borada bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Sharq falsafasi, xususan, islom falsafasi va tasavvuf ilmi yirik namoyandalari

¹¹ O'sha asar. P. 33.

qarashlarini falsafiy jihatdan o'rganish va ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil etish o'sha davrdagi ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy fikr rivoji, uning muhim xususiyatlari va ustivor yo'nalishlari hamda taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur anglashga, shu bilan birgalikda turli falsafiy, diniy va tasavvufiy oqimlarning mohiyatini to'g'ri idrok qilishga olib keladi. Bu ta'limotlarning keyingi asrlarda va hozirgi zamondagi falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishda nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ba'zi tadqiqotchi-orientalistlar o'z tadqiqotlarida Sharq peripatizm falsafiy maktabini namoyondalarini kamsitishga harakat qiladilar, uning vakillarini faqat Arasty ta'limotining bevosita davomchilari sifatida baholadilar va antik qadimgi merosi Yevropa ma'naviy madaniyatini o'zlashtirilishida ularning rolini past ko'rsatdilar. O'rta asrlar Yevropa ziyolisi va Uyg'onish davri XX asr fan tarixi falsafasining taniqli tadqiqotchisi Aleksandr Koyre sayohatchi faylasfy: "Forobiy, Ibn Sino va Ibn Ryshdning roli va ahamiyatiga juda katta, bizningcha, juda adolatli va xolis baho beradi. Shyningdek, o'rta asr G'arbda antik falsafaning rivojlanishi va tarqalishida ham muhim o'rin egallagan. "Lotin G'arbining myallimi va tarbiyachisi ayni arablar edi. Ular yunon va lotin dynyolari o'rtasidagi vositachilar emas, balkim myallimlar va tarbiyachilar, deb bejiz ta'kidlaganim yo'q. Agar yunon falsafiy va ilmiy asarlarining lotin tiliga birinchi tarjimalari to'g'ridan-to'g'ri yunon tilidan emas, balki ularning arabcha nusxalaridan amalga oshirilgan bo'lsa, bu faqat G'arbda qadimgi yunon tilini biladigan odamlar bo'lmaganligi sababli sodir bo'lgan. Chunki Arastuning "Fizika" yoki "Metafizika" yoki Ptolemeyning "Almegest"i kabi murakkab asarlarini tushunadigan hech kim yo'q edi. Shy bois, Farobiy, Ibn Sino yoki Averroes (Ibn Rusht) yordamisiz yunonlar hech qachon bunday (haqiqiy) tushunchaga erisha olmac edilar"¹².

Bu mulohazalardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Ibn Sino nafaqat Arastu ta'limotining sharhlovchisi, balki uning tanqidchisi va opponenti ham bo'lgan. Xususan, u yunon falsafiy ta'limotining asl mazmunini mutlaqlashtirgan yoki buzib ko'rsatganlarga qarshi edi. Shu bilan birga, u yunon olimining himoyachisi va sodiq muxlisi, Sharq va G'arb peripatizmining eng yaxshi an'alarining davomchisi edi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mutafakkir tasavvufiy qarashlarining gnoseologik mohiyati**" deb nomlangan va mazkur bobda Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarining gnoseologik xususiyatlari tahlil etilgan, Yaratuvchi sifatleri haqidagi ta'limoti irfon doirasida ochib berilgan.

Ibn Sino Xudoni vojib-ul-vujud deb ataydi va uning asosiy xususiyatlaridan biri uning irodasini ifodalaydi. Mutafakkirning tasavvufiy qarashlarida, u borliqni belgilaydigan xususiyatlar insonning o'ziga mavjudligiga ishorat beriladi. Bu yerda fikr Xudo va inson orasida analogiyaning mavjudligi. Xudodan insonga va insonning Xudoga bo'lgan intilishi, yuksak oliy sifatlar namoyon bo'lishi nazarda tutilgan. Mutafakkir fikricha, olam yaxlit, murakkab sistemadir. Shuning uchun ham, u borliqni har tomonlama tadqiq etish uchun determinizm prinsipini, uni

¹² Койре А. Аристотелизм и платонизм в средневековой философии. - Цит. по: Средневековая арабская философия. Проблемы и решения. - М.: Восточная литература, 1998. - С. 21-22.

ifodalovchi sababiyat, zaruriyat, tasodif, imkoniyat, voqelik kabi kategoriyalarni asos qilib oladi.

Ibn Sinoning fikriga ko'ra, Alloh tabiatga uning yaratuvchisi sifatida qarama-qarshi emas, balki u bilan ajralmas bir butunni tashkil qiladi, u tabiat bilan bir xil va ichki muvofiqlikka ega. Arastuchilarning sabab va oqibat doimo yonma-yon mavjud bo'lganligi haqidagi qoidasini qabul qilib, faylasuf shunday xulosaga keladi: "Alloh tabiatning umumiyligi, muntazamligi sababi bo'lganligi bois, na moddiy olam Xudosiz, na Xudo dunyosiz mavjud bo'la oladi"¹³.

Tadqiqotchi fikricha, Ibn Sinoning emanatsiya nazariyasi, aslida, rivojlanishning ikkita yo'nalishini ko'rsatadi: biri pastga, ikkinchisi yuqoriga. Pastga qaratilgan yo'nalishda u oy osti dunyo bilan, ko'tarilgan chiziqda esa odam bilan tugaydi. Payg'ambar odamlarning eng mukammali deb tan olinganligi sababli, emanatsiyaning ko'tarilish yo'nalishi u bilan tugaydi. Sferalarning harakati samoviy ruhlarning o'z manbasiga – tegishli ongga tinimsiz intilishi bilan izohlanadi. Odamlar ruhi ham faol ongga va oxir-oqibat mutlaq mavjudot (al-vudjud al-mutlaq) va sof ezgulikka (al-xayr al-mahz) ega bo'lgan o'ziga to'q Ilohiy Mutlaqqa intiladi¹⁴.

Emanatsiya nazariyasida Ibn Sino nafaqat neoplatonik qarashlarga, balki tasavvuf ta'limotining so'nggi moslashtirilgan qonunlariga ham rioya qilgan. Masalan, inson qalbining Alloh bilan birlashishga intilishini asoslashda u Qur'on qoidalaridan biriga havola qiladi: "Alloh odamlarni yaratadi, keyin ularni o'ldiradi, shunda ularning barchasi (insonlar) uning bag'riga qaytadi"¹⁵. Qolaversa, Ibn Sino o'zining "Me'rojnoma" yoki "Murshid-ul-kifoya" ("Ko'tarilish") asarlarida Muhammad Payg'ambarning Ilk Yaratuvchiga mehrojga ma'naviy ko'tarilishini tasvirlab, kosmik substansiyalarning allegorik nomlarini astrologik o'lchovda keltiradi. Albatta, bu borada yorqin emosional ranglar va ramziy qiyoslashlardan foydalanadi. Masalan, kosmik onglar oliy farishtalar, samoviy ruhlar esa oddiy farishtalar qiyofasida tasvirlangan. Payg'ambarning faoliyatli ong, shuningdek, Muqaddas Ruhni ifodalovchi oliy farishta Jabroil alayhissalom bilan birga Mutlaqga ko'tarilishining birinchi bosqichida yer yuzi zabt etish kerak, boshqacha aytganda, hissiy, tabiiy kuchlar va illatlardan xalos bo'lish kerak bo'ladi. Oliy farishta Jabroil alayhissalom dan tashqari, Payg'ambarga uning kosmik safarida afsonaviy Buroq oti (faoliyatli ongni ifodalovchi) hamrohlik qiladi.

Safarga otlanganlar erishgan Buyuk ezgulik yo'lidagi birinchi samoviy sfera oy edi. Samoviy kosmik iyerarxiyaga muvofiq sayohatchilarning ikkinchi boshpanasi Merkuriy (Atorud) sferasi edi. Birin-ketin Venera (Zuhro), Quyosh, Mars (Mirrix), Yupiter (Mushtari), Saturn (Zuhayl) sferalari zabt etilib, Dastlabki ongsaltanati joylashgan eng oliy ilohiy sferaga qadar yetib borilgan.

Risola boshida qo'yilgan savollar yaratilish, borliq, mohiyat va mavjudlik masalalariga doir umumdunyoqarash muammolarini tushunishga yo'naltirilgan. Shunday qilib, "Mavjudotlarning yaratilishining sababi nima?" degan savolga Ibn Sino, – ibtidoiy Haqiqatning namoyon bo'lishidir", – deb javob beradi. Ushbu

¹³ Чохордах макола. - Техрон, 1340х. - С.143-144.

¹⁴ Qarang. С.Н.Ковиш. Мистицизм Ибн Сины. Автореферат «диссертации». - С.29.

¹⁵ Ибн-Сино. Дар хакикат ва кайфияти силсилаи мавчудот ва тасалсули асбобу мусаббабот. Абу Али ибн Сино. Осори мунтахаб. Ч. 2. - Душанбе: Ирфон, 1983.- С. 193.

tezisning tasdiqlanishi uchun olim Muhammad payg'ambarning hadislaridan birini havola qiladi: "Men yashirin xazina edim va meni bilishlarini buyurdim. So'ngra, men odamlarga tanilish uchun ularni yaratdim"¹⁶.

Barcha ibtidolarning boshlanishi nima, yoki boshqacha qilib aytganda, "birinchi navbatda Tangri nimani yaratgan?" – degan azaliy savolga Ibn Sino: "O'zini va yaratuvchisini ko'zgu kabi biladigan aynan bilimga o'xshash faol ong" – deb javob beradi¹⁷. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, yaratishning maqsadi ongning namoyon bo'lishi ekan, demak, ongning yaratilishidan maqsad – ibtidoiy Haqiqatning namoyon bo'lishidir. Demak, donolikning (ongning) muqarrar talabi – uni va uning mohiyatini bilishi kerak bo'lgan mavjudotning yaratilishidir! Ong tomonidan yaratilgan mavjudot ommaviy ruh deb ataladi. Uning ikkita o'ziga xos kuchi bor – ehtiros kuchi va tasavvur kuchi. Ongning namoyon bo'lishi ruh ekan, shuning uchun uning mohiyati o'zida namoyon qiladigan mavjudot yaratish kerak. Demak, Ibn Sinoning fikricha, ruhning reasionistik mohiyatidan ommaviy tabiat va ommaviy substansiya kelib chiqadi. Kosmik iyerarxiyadagi uchinchi pog'onani egallagan tabiatning o'zi uchta kuchdan iborat: 1) harakatlantiruvchi kuch, 2) yo'naltiruvchi kuch va 3) harakatga moyil kuch. Substansiyaga kelsak (unsur), u iyerarxik zinapoyaning to'rtinchi pog'onasini egallaydi. Tabiat mohiyatini bilish maqsadida Ibn Sino o'z o'quvchisini shunday savol bilan o'yga soladi: "Tabiatning birinchi unsuri nima edi va uning oqibatlari qanday bo'lgan?". Ibn Sinoning fikricha, dastlab dunyoda "nuqta" paydo bo'lgan. So'ngra, nuqtadan "uzunlik" yoki boshqacha qilib aytganda, "chiziqlik" yuzaga kelgan; undan "kenglik" paydo bo'lgan. Uzunlik va kenglik "tekislik"ni hosil qildi. Tekislikka tabiiy ta'sir natijasida "chuqurlik" paydo bo'lgan. Uzunlik, kenglik va chuqurlik birlashib, "vujud"ni hosil qildi. Garchi bu unsurlar tabiiy harakatlantiruvchi kuchlar ta'sirida shakllangan bo'lsa-da, biroq, Ibn Sino uchun ularning aniqlovchi boshlanishi ruhdur. Shunday qilib, ruh tufayli mavjudlikka harakat bergan va uni kamolga yetkazgan: Ibn Sinoning fikricha, mavjudlikning eng oliy kamoloti – "umumiy shakl" (*ummulashkol*) deb e'tirof qilingan "doira shakli"dir¹⁸.

Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, Ibn Sino qarashlarida, dunyodagi barcha narsalarning substansial asosi mavjud va shu bilan ahamiyatlidir. Uningcha, substansiyaga deterministik nuqtai nazardan yondashilsa, barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi – zaruriy vujud va imkoniy vujud. Bular sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanatsiya tarzida (ya'ni xudodan chiqayotgan nur shaklida) asta-sekinlik bilan amalga oshadi, namoyon bo'ladi. Shu tartibda, imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism va ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substansiya (javhar)dir. Bundan tashqari, borliqda aksidensiya – narsalarning xususiyatlari, masalan, rangi, hajmi, hidlari ham mavjud.

Ibn Sino fikricha, imkoniy vujudning zaruriy vujudan kelib chiqishi faqat Allohning yaratuvchilik qudrati tufayli bo'lmay, balki borliq qonuniyatining, zaruriyatining ham natijasidir. Xususan, Tangri bilan birga imkoniyat shaklida

¹⁶ Ибн Сина. Трактат о птицах. Ибн Сина. Избранное. - М.: Книга. 1980. - С.180.

¹⁷ O'sha asar. B.193.

¹⁸ Qarang. Ибн Сино. Муршид-ул-кифоя. Осори мунтахаб. Ч. 2. - Душанбе, 1983.- С. 155.

mavjud bo'lgan materiya ham zaruriy ravishda voqyelikka aylanadi. Uningcha, Xudo abadiy, shu sababli uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir.

Mutafakkir tasavvufiy ta'limoti o'zining intellektual xususiyati bilan ajralib turadi. Har qanday tahlilni aql tarozisiga qo'yishga intiladi. Tasavvufiy atriburlar xususida shunday fikr bildirgan: "Muqaddas Ruh" nuqta bilan ramziy ma'noga ega; bashorat – chiziq bilan; payg'ambarning vazifasi – tekislik bilan; taklif (ya'ni payg'ambarning vasiyatlari) – substansiya (javhar) bilan; odamlar jamoasi (millat) – tana bilan. Binobarin, hamma narsaning boshlanishi nuqta va hamma ishlarning boshlanishi "muqaddas ruh"¹⁹dir, – deb xulosa qiladi Ibn Sino. Nuqta hukmronligi barcha mavjudotlarga tegishlidir, bu muqaddas ruhning barcha onglar ustidan hukmronligini anglatadi. Ibn Sino koinot va insonning kelib chiqishi va uning ijtimoiy gradatsiyasini talqin qilishda astrologik va matematik ramzlardan foydalanishi uning o'rganilayotgan sohalarni tabiiy ilmiy tushuntirishga sodiqligidan dalolat beradi. Yuqoridagilarga tayangan Ibn Sino tasavvufiy ta'limotida intellektual mohiyat aks etganini kuzatish mumkin.

Tadqiqotda Ibn Sinoning "Murshid-ul kifoya" yoki "Me'rojnom" (Yuksalish) asarida insonning kelib chiqishini Alloh yaratgan paytdan boshlab, to so'zlovchi (oqilona) ruh va o'z aqlida (ongida) evolyusion taraqqiyotning eng yuqori nuqtasiga yetgunga qadar jarayonni tasavvufiy kontekstida tahlili keltirilgan. Ushbu ikki substansiyalar tufayli inson moddiy dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi va ular orqali olijanob mavjudotga aylanadi. Transsendent dunyoga keladigan bo'lsak, bu yerda kosmik iyerarxiyada eng yuqori subyektlar "Dastlabki ong" (*Aqli avval*) va "Muqaddas Ruh" (*"Ruhulkuds"*) deb e'tirof etiladi. Ular o'rtasidagi munosabatlar insonning qalbi va ongi o'rtasidagi munosabatlar bilan bir xildir. Muqaddas Ruh dastlabki ong darajasidan pastda turadi va unga bo'ysunadi. Birinchisi barcha onglar ustidan hukmronlik qiladi; ikkinchisi barcha ruhlardan (*farishtalar*) olijanob hisoblanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Ibn Sinoning ruhiy olam abadiyligi haqidagi ta'limotida insonni ilohiy Mutlaq bilan birlashishi va unga qorilib ketishi (*fano fillah*), uning muhim asosini yo'qotish va yo'qlikka sho'ng'ish degani emas, balki o'zining haqiqiy mavjudligini topgan inson o'z-o'zini bilishining yuksak darajasini ekanligi to'g'risida fikrlari tadqiq etilgan. Ibn Sinoning allegorik risolalarida inson ikki dunyoning xabarchisi sifatida namoyon bo'ladi: bir tomondan, birida tabiatning evolyusion rivojlanishi mahsuli sifatida – u moddiy dunyoning tashuvchisi bo'lib, ikkinch tomondan esa, ilohiy emanatsiya mahsuli sifatida – u kosmik prinsipni anglatadi. Ibn Sino o'zining tasavvufiy "Qushlar haqidagi risola"sida inson ruhini jannat qushlariga o'xshatadi²⁰, ular Yer, Koinot va Olamning bepoyon kengliklari orqali baxtiyor saltanatga uzoq sayohat qilishlari kerak. Ushbu yo'l insonni Haqiqatni tushunib etishga, uning taqdirini anglashga, asliy jihati ruhiy olamining mohiyatini bilishga olib keladigan irfoniylar jarayonining bosqichlarini tasvirlab berdi.

Ibn Sino gnoseologiyasi o'ziga xosligi shundaki, peripatetik falsafasining eng myhim tamoyili – by olamning ibtidoiy tabiati va abadiyligi haqidagi ta'limoti,

¹⁹ Qarang. Ибн Сино. Муршид-ул-кифоя. Осори мунтахаб. Ч. 2. - Душанбе, 1983.- С. 155.

²⁰ Ибн Сина. Указания и наставления. -Избр. произ. Т.1.-С.326.

emonasiya nazariyasi bilan bog'liqligini kuzatish mumkin.²¹ Ibn Sino Xudo va olamning birgalikdagi abadiyligini tan olganiga qaramay, uning falsafasini dualistik deb ta'riflab bo'lmaydi. Bu asosan, o'zining asl tamoyiliga ko'ra, irratsional yondashuvdir. Ibn Sino mantiqiy tafakkuri mulohazalar, dalillari va vajlarni asoslashga qaratilgan tezislar bo'lib, unga ko'ra borliqning nafaqat paydo bo'lishida oqibatning sababga tobeligda bo'lishi, bu jihat butun borliq davomida ham mavjuddir. Xuddi shu bog'liqlik zaruriy mavjudlik va ehtimoliy mavjudlik o'rtasida ham bor.

Ibn Sino nuqtai nazaridan olam ma'lum bir jarayon natijasida ilohiy mohiyatdan iborat bo'lib, y rivojlanishida bir qator bocqichlardan o'tib, haqiqiy ko'rinishga ega bo'lgan. Emanatsiya orqali ilohiylikdan kelib chiqqan olam mohiyatan moddiy, ammo abadiylikda Xydoning o'zidan kam emas. Agar Xudo olamning sababi sifatida abadiy bo'lsa, uning harakati natijasi bo'lgan olam ham abadiydir".²²

Demak, Ibn Sino kreatsionistik g'oyalarga zid bo'lib, Xudoga absolyut yagonalik mazmunini bergan, "olamning yaratilishi" atamasidan voz kechmagan. Uning fikricha, mutlaq yagona sanalgan Xudo qandaydir ko'plikka sabab bo'la olmaydi, zero birlikdan faqatgina birlik kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashlarida kamolot bosqichlari**" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda "Risolai ishq"dagi irfoni holatlar, ya'ni koinotning butun makoniga singib ketadigan kosmik hodisa ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, Ibn Sino ta'limotida komil inson tushunchasi va komillik bosqichlari hamda ishq va uning tasavvufiy asoslari tadqiq etilgan.

Muhabbat tabiiy va kosmik substansiyalarini barchasi, birlamchi unsurlarning mutlaq ruhning yuqori substansiyalari ham ma'lum darajada muhabbat ta'siriga muhtalo qilingan. Shunday qilib, muhabbat Ibn Sinoning asosiy falsafiy konsepsiyalaridan biriga aylangan, va o'ziga xos "muhabbat falsafasi" darajasiga ko'tarilgan bo'lib, barcha tirik va jonsiz mavjudotlarning yaxlitligini ta'minlaydigan fazilatli va yo'naltiruvchi poklik va ilohiy ishq bilan yo'g'rilgan substansiya sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotchi fikricha, ishqning pokligi, aqlli mavjudotning o'z-o'zidan hayvoniy kuch alangasini yovuz ehtiroslar shaklida bostirish qobiliyatidir yoki muhabbat obyekt bilan ruhiy aloqaga erishish hisoblanadi. Bu fikrlarda Ibn Sinoning diqqati uning fiziologik ko'rinishlaridan ko'ra ko'proq "ishq axloqi"ga qaratilgan. "...Ibn Sinoga muhabbat axloqi faqat aql-idrok ruhining erkin harakatidadir, u orqali inson o'zini o'zi his qiladi. Inson Mutlaq Ezgulik bilan birlashish sari intiladi... Bu muhabbat pokizadir, u olijanoblik va ezgulikning o'sish manbai bo'lib, insonni barcha yaxshiliklarning manbasiga yetaklaydi..."²³. Oliy boshqaruv kuchi sifatida muhabbatning oliy subyekti muhabbatning oliy obyekt bilan bir xil, ya'ni oliyning eng yuqori va eng muqaddas mohiyati bilan bir xil, chunki yaxshilikka ega bo'lish va tushunish orqali u bilan birlashish orqali yaxshilikni sevadi. Birinchi yaxshilik o'zini abadiylikda anglaydi va shuning uchun

²¹ Абу Али ибн Сина. Избранные произведения. - Том 1. - Душанбе: Дониш, 1980. - С. 25.

²² Богоутдинов А.М. Избранные произведения. С. 110.

²³ Bu haqda: Трактат Ибн Сины о любви./ тарж.Серебряков С. Б. - С.34.

uning o'ziga bo'lgan muhabbatsi eng mukammal va to'liqdir. Uning mohiyatining ilohiy sifatleri o'rtasida farq yo'qligi sababli, bu yerda muhabbat - mohiyat va yaxshilik kabi sof va sodda shaklda namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Dissertatsiyada Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlari "Solomon va Ibsol", "Hay ibn Yaqzon", "Tanbehot va ishorot", "Muhabbat risolasi", "Qush haqidagi risolasi" kabi asarlaridagi asosida yaxlit shaklda namoyon bo'lishi, hamda strukturaviy birligi aniqlangan. Darhaqiqat, mutafakkirning "Hay ibn Yaqzon" asarida, G'arbdan (moddiy dunyodan) Sharqqa (ma'naviy dunyoga) sayohat qilish (ya'ni, axloqiy takomillashtirish va haqiqatni bilish) uchun tayyorlanar ekan, inson qayerga bormasin, unga hamroh bo'ladigan uchta muqarrar yovuz yo'ldoshlarini bo'ysundirishi shart. Bu obrazli ifodalangan "hamrohlar" - "do'stlar" insonning o'zidadir. Bu, *birinchidan*, yolg'onchi va gapdon sifatida harakat qiladigan odamning tasavvuridir; *ikkinchidan*, janjalchi deb nomlangan g'azab kuchi va *uchinchidan*, nafratlangan badnafslilik bilan hisoblangan shahvat kuchi. Inson ulardan xalos bo'lmaguncha, uning sayohati asosiy ehtirosalar dunyosi va ma'naviy substansiyalar dunyosi o'rtasida o'zgarib, maqsadiga erisha olmaydi. Va faqat "o'z ona yurtlaridan va hech kim oyoq bosolmaydigan yurtga qochish"²⁴ uni ulardan qutqarishi mumkin. Ammo hamma ham noma'lum, ulardan biri G'arbdan tashqarida, ikkinchisi Sharqdan tashqarida joylashgan o'lkalarga bunday sayohat haqida qaror qabul qilmaydi. Ular yerning ikkita noma'lum hududini tashkil qiladi, ularning har biri taqiqlangan chegaraga ega va "faqat tanlanganlar tabiatan odamlarga hech qachon berilmagan kuchga ega bo'lib, ulardan hatlab o'tishi mumkin"²⁵. Bu kuch esa insonga "turg'un hayot chashmasidan uncha uzoq bo'lmagan o'ziga xos chashma"da yuvinish orqali beriladi. Unda cho'milgan har bir kishi, albatta, poklanadi va agar u suvning hayotbaxsh ta'mini tatib ko'rsa, unda "insonning butun vujudiga bunyodkorlik kuch tarqaladi, bu esa unga o'sha sahrodan o'tish uchun etarli tetiklik beradi va u dengiz-ummonga cho'kib ketmaydi, Qof tog'ining tik jarliklari uni toliqtirmaydi va jahannam qo'shinlari uni jahannamga yumalatmaydi va oxir-oqibat u shu paytgacha undan tashqarida bo'lgan ikki chegaralardan biriga chiqadi"²⁶. Oqsoqol Hay o'z sherigini xavfli va qiyin sayyohatga tayyorlar ekan, o'tishi kerak bo'lgan har bir hududni o'ziga xos tabiiy va iqlim sharoitlari bilan tasvirlaydi, bu erda turli xil samoviy va erdagi mavjudotlar (farishtalar, iblislar, jinlar, shayton qo'shinlari) istiqomat qiladi, so'zlay olmaydigan hayvonlarning har xil turlari: suzadigan, sudralib yuradigan, yuradigan va uchadigan, tug'iladigan va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan, - shuningdek, o'ziga xos odatlari va hayot shakllariga ega bo'lgan odamlar, xalqlar va mamlakatlarning turli xil shaxslari, oxir-oqibat, borish uchun qutb va o'zlarini abadiy saodat olamida topadilar.

Tadqiqotchi fikricha, ushbu astrologik sayohat o'ziga xos ramziy ma'noda so'fiyning tariqat yo'liga kirishini, uning ruhining axloqiy va intellektual mukammallik orqali Yorug'lik va Ezgulik saltanatiga erishishga bo'lgan intilishlarini ifoda etadi. Insonning ma'naviy faoliyatida inson kashf etishi kerak

²⁴ Ибн Сина. Трактат о Хайе, сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина. - С. 222.

²⁵ O'sha asar. - С. 222.

²⁶ O'sha asar. - С.223

bo'lgan sir va jumboqlarga to'la. Sayohatga taklif qilib, Oqsoqol Hay maftun bo'lgan suhbatdoshi oldida noma'lum bilim va ilm olamini ochadi, u go'yo maqsadga erishish yo'lidagi so'fiyning qat'iyati va maqsadi uchun mukofot sifatida Yuksak Haqiqatning yorqinligi haqida fikr yuritish bilan yakunlanadi.

Bilishda insonning axloqiy xususiyatlari, ya'ni ehtiroslaridan va axloqsiz xatti-harakatlaridan voz kechish va haqiqat yo'lida duch kelgan shaytoniy kuchlarning vasvasalariga berilmaslik qanchalik muhim ahamiyatga ega. Eng Yuksak Haqiqat ramzi bo'lgan qutbga erishish uchun, oqsoqol Hay boshchiligidagi insonning oqilona ruhi (donolik ramzi, faol ong) oldindan qandaydir "shaldiraydigan chashma"da poklanishi kerak, ya'ni Ibn Sino mantiqni nazarda tutgan zarur metodologiya bilan qurollanish. Aynan u, turg'un hayot chashmasi (intellektual sezgining ramzi) bilan bir qatorda G'arbdan (jismoniy dunyo) Sharqqa (aqliy mavjudotlar dunyosi) cho'zilgan tabiiy va kosmik olamlarning sirlarini bilishda inson ongining yo'lini yoritadi. Olim o'zining allegorik risolalariga so'fiylik ramziyligini, uning dunyoqarash yo'nalishidagi asosiy narsani – borliq va insonni nazariy tushunishda ong va falsafaning oliy ilohiy fan sifatida rolini tan olishni o'zgartirmadi. Tasavvuf ramziyligi uning falsafiy konstruksiyasiga yetishmayotgan rang-baranglik va nafislikni berdi.

Dissertant ta'kidicha, mutafakkirning tasavvufiy qarashlarida aqliy mukammallik va axloqiy poklikning eng yuqori darajasiga erishgan inson Xudo bilan birlashishidir. Ibn Sinoning so'zlariga ko'ra, "muhabbatning oliy subyekt muhabbatning oliy obyekti bilan, ya'ni Parvardigorning oliy va muqaddas mohiyati bilan bir xildir" va buyuk so'fiy Xalloy kabi: "Anal-haq" (Men haqiqatman) deb xitob qilishi mumkin. Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarida insonni ilohiy Mutlaq bilan birlashtirish va unga qorilib ketish (fano fillah), uning muhim asosini yo'qotish va yo'qlikka sho'ng'ish degani emas, balki o'zining haqiqiy mavjudligini topgan inson o'z-o'zini anglashning yuksak darajasini ifodalagan.

Ibn Sinoning allegorik risolalarida inson ikki dunyoning xabarchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, tabiatning evolyusion rivojlanishi mahsuli sifatida - u jismoniy dunyoning tashuvchisi, boshqa tomondan esa, ilohiy emanatsiya mahsuli sifatida kosmik prinsipni anglatadi. Ammo ruhiy tushunish jarayonida u mavjudligining ikkilanishi va uzilmasligini bartaraf etadi. O'zi bilan kosmik dunyo o'rtasidagi parchalangan uyg'unlikni tiklaydi. Aynan Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilikda, Yorug'lik va Zulmat, Yaxshilik va Yomonlikning ramzi bo'lib, inson ong va ijtimoiy adolat g'alabasini ta'minlashda uning ishtiroki bilan chaqirilgan asosiy qahramonga aylandi. Ibn Sino allegoriyalar orqali insonning shaxsiyati va qadr-qimmatini o'z-o'zini tasdiqlashga qaratilgan ichki izlanishlarining asl ma'nosini to'liq ifodalashga, shaxsni yolg'on, zulmat va ikkiyuzlamachilik olamidan qutqarish yo'llarini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Dissertatsiyada tasavvufning ko'p sonli guruhleri va yo'nalishlari orasida Ibn Sino o'zining mukammallik darajasi bilan farq qiluvchi vakillarining uch turini mohiyatan va mantiqan yoritib berilgan. Mukammallikning birinchi bosqichida "darvesh" zohid bo'lib, uning turmush tarzi bu dunyoning rohatlari va ezguliklaridan voz kechish bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich "taqvodor" obid bilan ifodalanadi. Bu nom o'z hayotini ibodat, ro'za kabi diniy marosimlarni boshqarishga

bag'ishlagan insonga beriladi. Haqiqatning ichki sirini bilishda o'z fikrlarining sofligi va mushohadakorligi bilan ajralib turuvchi orif shaxsi eng yuksak mukammallikka erishadi. Aynan shu toifa odamlar, Ibn Sinoning fikriga ko'ra, "komil inson" unvonini olishga loyiqdir²⁷.

Shuning uchun Ibn Sino tasavvuf ahli vakillari orasida orif shaxsiga eng katta ustunlik bergan. Ibn Sinoning so'fiylik timsollariga murojaati barcha "keng jamoatchilik" vakillarining so'fiy orif dunyoqarashi jihatidan ham, axloqiy jihatdan ham, mutafakkirning falsafiy g'oyalariga eng yaqin bo'lganligi bilan bog'liq²⁸. So'fiylikning avvalgi ikki vakili - darvesh zohid va taqvodor obid ga kelsak, ularning Xudoga xizmat qilishdagi g'ayratlari "foydali bitim" xulosasini eslatadi, ya'ni narigi dunyoning ne'matlaridan bahramand bo'lish evaziga, haqiqiy orif esa Haqiqatning ichki sirini bilishga intilishda fikrlari pokligi bilan ajralib turishi lozimligi asoslangan.

Dissertant fikricha, Ibn Sinoning "komil inson" modeli aqliy muqaddima – ong bilan bezatilgan donolikning uyg'unligi va mo'tadillik va axloqiy go'zallik idealini o'z ichiga oladi. Bunday insonlar donishmand qiyofasida mujassamlangan bo'ladi. Shuningdek, bu ma'rifiy yo'l Yaratguvchi bilan birlashish va oxir-oqibat ilohiy mohiyatda qorishib ketish maqsadida irfon orqali bosqichma-bosqich mukammallikka ko'tarilish g'oyasiga asoslangani ta'kidlangan. Masalan, Ibn Sino o'zining "Qushlar haqidagi risola"sida inson ruhini jannat qushlariga o'xshatadi. Ular Yer, Koinot va Olamning bepoyon kengliklari orqali baxtiyor saltanatga uzoq sayohat qilishlari kerak. Bu yo'l insonni Haqiqatni tushunib yetishga, uning muhim taqdirini anglashga olib keladigan bilish jarayonining bosqichlarini obrazli shaklda tasvirlab berdi. Ammo bu bilim yo'li jannatiy gullar va atirgullar bilan qoplangan emas. Shuning uchun Ibn Sino o'z tarafdorlarini – "Haqiqatdagi birodarlar"ni bilishning quyidagi asosiy tamoyillariga rioya qilishga chaqiradi. *Birinchi*dan, barcha bilim va mukammallikka intiladiganlar, o'z sirlarini baham ko'radiganlar, boshqalarga nisbatan o'qituvchi va murabbiy bo'ladi. *Ikkinchi*dan, bilimlarning ezoterik mazmuni ta'limotning butun sirini saqlab qolgan holda, "keng jamoatchilik" uchun ochiq shaklda taqdim etilishi kerak. Bilimlarni tarqatishning eng yaxshi usuli esa bu til ramziyligidir. *Uchinchi*dan, hech qachon erishilgan yutuqlar bilan to'xtamaslik kerak. Har qanday sustlik bilim va fan uchun halokatdir. Insonning mohiyati – uni takomillashtirishda, qushni uchish uchun mo'ljallanganidek. Ushbu tamoyilning kinoyali ma'nosi Ibn Sino tomonidan ramziy shakilda ifodalangan: "Har doim parvozda bo'ling, eski uyalarni tanlamang – axir, har bir qush uyalarda ushlanib qoladi. Negaki nurlarning eng yaxshisi – osmon-u falakda parvoz qilish uchun berilganidir"²⁹.

Bilim masalasida har qanday yo'l bilan ilm oling va boshqalardan o'rganishdan tortinmang. "Ilon po'st tashlaganidek, teringizni yechib tashlang. Qadamlarining tovushlarini hech kim eshitmaydigan chumoli kabi yerga qadam tashlab yuring. Qurolini dumining uchida olib yuradigan chayonga o'xshang, negaki orqa tomondan iblis odamni g'aflatda qoldirishga intiladi. Tirik qolish uchun zahar iching;

²⁷ Bu haqda: Бу ҳақда: Трактат Ибн Сины о любви./ тарж.Серебряков С. Б. - С.34.

²⁸ Bu haqda: Ибн Сина. Указания и наставления,- Избр. произ. Т. 1.-С.318.

²⁹ Qarang. Ибн Сина. Трактат о птицах. Ибн Сина. Избранное. - М.: Книга. 1980. - С.197.

yashashni davom ettirish uchun o'limni seving, chunki insonning kuchi va yetukligi ilmdadir"³⁰, -deb ta'kidlaydi.

Muallif fikricha nur bilan yoritgan ong, o'z ehtirolari ustidan hukmronlik qila oladigan va o'z hujumlarini jilovlay oladigan kishilarni Ibn Sino farishtalar qatoriga qo'shadi. Risola aslida, qushlar to'dasi avval o'zlarini, so'ngra falokatga duch kelgan qushni (ya'ni inson ruhini) chigallardan va kishanlardan ozod qilishi va uni o'zlari bilan uzoq yurtlarga uchishga taklif qilishi, u yerda najot topishi, ozodlik va baxtga olib boradigan yo'llarni topishi mumkinligi bilan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ular ruhni Yuksak Haqiqatni anglashga olib boradigan najot yo'li bo'lgan ilm yo'liga ergashishni taklif qilishadi. Qushning bo'yni va qanotlarini bog'lamlar va to'rlardan ozod qilib, uni qafasdan ozodlikka chiqarganlari bilan, ular hali ham, o'zlariniki kabi, panjalarini chigallardan ozod qila olmadilar. Ammo bu ularning parvozini boshlashiga va uzoq safarga chiqishiga to'sqinlik qilmadi. Ibn Sinoning ushbu metaforasining asl ma'nosini biz rivoyat oxirida, qushlar ulug'vor shahar chegaralariga yetib borganlarida, uning shohiga yordam so'rab murojaat qilishganda tushunamiz.

Dastlab, ularning yo'li vodiy bo'ylab o'tib ketdi, "ba'zan sero't, ba'zan unumsiz, xarobazorgan aylangan yaylovlar" (bu ruh tomonidan oy osti dunyo haqidagi bilimlarni anglatadi), tog'ning ikki qobig'i orasida, uning cho'qqisiga (Oyning shariga) etib borguncha, ularning nazarida yuqoriga qarab ketayotgan qirrali, sakkiz tog'ning tizmasidan ajoyib manzara gavdalandi. Bu tog' tizmalarining barchasi birgalikda to'qqiz osmon gumbazlarini ramziylashtiradi. Abu Alining obrazli ifodasiga ko'ra, haqiqat yo'lidagi, mana shu tog' tizmalari singari, o'zining go'zalligi va ko'rkamligi bilan inson qalbini zohiran maftun etuvchi va o'ziga tortuvchi narsalar ko'p. Biroq, ular haqida to'xtalib o'tish, uning tomonidan juda shoshqaloqlik bo'lar edi, chunki ular shaxs ruhini hissiy rohatlanish va baxt kuchiga jalb qilishadi. Xuddi shunday vaziyatda yettinchi tizma (harakatsiz yulduzlar shari)ga uchgan qush ruhi ham xuddi shunday vaziyatda bo'ldi. Bu bog'lar qanchalik go'zal bo'lmasin, atrofi ko'kalamzor, mevali daraxtlar, oqar daryolar va gullarning mo'l-ko'lligi, nozik ifori mushkning nozik xushbo'yliги yoki ambarning nozik hidi bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bu baxt dushmanlar tomonidan ta'qib qilingan qushlar bu tanlangan o'lkalarni tark etib, qochib qutulishlari mumkin edi. Xuddi shuningdek, inson ham hissiy lazzat va rohatlarga berilib, o'z ruhini haqiqiy baxtni sinab ko'rish imkoniyatidan mahrum etadi.

So'fiylari olam va insoniyatning ilohiy kelib chiqishini, yaratilishini quyidagi bosqichlarda tasvirlaydilar: Nur-e-Ahadiy (Yagona nuri) O'zining birligidan chiqib, O'zini ko'plikda namoyon etishi – "Tanzalat-i-Satta" tushinilgan. Tasavvuf kosmologiyasi (arab.: التوالمولوية الاوري), – irfon olamiga asos soladigan asosiy poydevor bo'lgan inson va koinotning yaratilishini muhokama qiladigan so'fiylik yondashuvi³¹.

³⁰ O'sha asar. - C.197.

³¹ Козловский, Питер (30 ноября 2001 г.). Концепция Бога, происхождение мира и образ человека в. мировые религии. Спрингер. стр. 99. ISBN 9781402000546.

Ibn Sino gnoseologik yondashuvlarda yuksalish bosqichlariga, ya'ni, emoniyaga (lotincha Emanare - oqim, tarqalish - ilohiy oqim orqali dunyoning kelib chiqishi haqidagi kosmologik g'oya) alohida urg'u berilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, tazkiradagi ta'kidga e'tibor bersak, masofalarni barchasini yengib o'tib, qushlar sakkizinchi tizma (astronomik jihatdan Imperiyaga to'g'ri keladi - yulduzsiz osmon sferasi) ga chiqdilar. Uning aholisi olim tomonidan qushlar qiyofasida chizilgan farishta o'xshash jonotlar bo'lib, ular yoqimli ovozi, rang-barang patlari, nafis qiyofasi va mehribonligi bilan ajralib turardi. Oqilona boshlanishlarning emanatsion tizimidagi bu she'riy chizilgan dunyo, tegishli sharoitlarda, inson ruhi mukammallikka intilishida erisha oladigan Birinchi Ong sohasidan boshqa narsa emas edi. Shuning uchun nazariy ong o'z-o'zidan, agar u amaliy ong bilan qo'llab-quvvatlanmasa, bilim uchun yetarli bo'lmaydi. Bu esa odamlarning o'z harakatlarini, axloqiy ishlarini, iroda va tanlash erkinligini nazarda tutadi.

Astrologik makonda kosmik substansiyalarning uchrashganda, o'zlarining qayg'ulari va musibatlari haqida aytib berishgan va ular tog'ning boshqa tomonidagi shaharda yashovchi oliy podshohga murojaat qilishni maslahat berishdi. Unga yordam so'rab murojaat qilgan har bir kishi, shubhasiz, uning qudratli kuchlari himoyasi ostida bo'lgan va uning yordamiga ishonishi mumkin edi. Ushbu podshoh Ibn Sinoning kosmik iyerarxiyasida olamni Yaratuvchisi, gnoseologik nuqtai nazardan esa – Ommaviy Logosni yoki Haqiqatni o'zida insonning barcha ruhiy faoliyati mujassam etganligi namoyon bo'ladi. Aynan ruhning yuksak shakllari shaxs qobiliyatlarining bilish harakatini yakunlaydi, bu Oliy Haqiqatni yoki Logosni o'z bilish obyektiga aylantiradi. Risolada ular podshoh saroyidagi ikkita alohida xona shaklida taqdim etilgan.

Dissertant fikricha Ibn Sino o'zining “al Ishorat va-t-tanbeh” asarida so'fiy ta'limotining maqsadini mutlaqqa intilish, tasavvufiy yuksalish deb ta'riflaydi. “Tasavvuf bilimlar, ajratish, olib tashlash, inkor etish va rad etish bilan boshlanadi. Keyinchalik, bu haqiqat atributi bo'lgan hamma narsani chuqurlashtirishdan iborat. Tasavvuf haqiqatni bilish va u bilan birlashish bilan yakunlanadi”³².

Ma'lumki tasavvuf tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iborat bo'lib, o'zining amaliy va nazariy qismlarga bo'linadi. Ibn Sinoning “mubtalo” deb nomlangan birinchi bosqichida, so'fiy o'z ruhini poklashi, solih qilishi va ilohiy mohiyatga yo'l topishi shart. Bilimning ushbu shakliga erishish uchun so'fiy avvalo o'zi bilan o'zi bo'lib, butun dunyoviy narsalardan voz kechishi, isyonkor ruhni tinchliksevar ruhga bo'ysundirishi, ya'ni zohid aylanishi kerak. Bu o'zidan va atrofdagi haqiqatdan qochish unga eng Oliy Haqiqatga yaqinlashish uchun zarurdir. Modomiki, u shu bosqichda ekan, uni izlovchi, ya'ni “murid” deb ataydilar, – deb ta'kidlaydi olim. O'zining ma'naviy kamolotida, moddiy dunyoning nopokliklaridan xalos bo'lgandan so'ng, o'zining g'ayratli mashqlarida so'fiy shunday bilimlarga erishadiki, bu unga o'zi va eng Oliy Haqiqat o'rtasidagi pardani ochishga imkon beradi, unda uy xotirjamlikka erishadi va yorqin yulduz kabi yorug'lik kerakli bilim obyekti bilan aloqa qilishga imkon beradi. Ushbu bosqichda

³² Ибн Сина. Указания и наставления.- Избр. произ. Т.1. - С.317.

taqvodor faqat Oliy Mavjudotni bilish qobiliyatiga ega bo'ladi va u bilishni istagan narsa har doim emas, balki intuitiv tushuncha sifatida paydo bo'ladi, ammo vaqt o'tishi bilan "u xohlagan paytda unda paydo bo'ladi. U Oliy Haqiqat ilmiga qanchalik chuqur kirishsa, u shunchalik o'ziga o'zi kam ko'rinadi. Garchi mavjud bo'lsada, u ko'rinmaydi, biror narsaga u intilsada, lekin o'sha paytda bir joyda turadi"³³. Ushbu bosqichni hatlab o'tib, so'fiy ko'nglidagi maqsadga erishmaguncha to'xtamaydi, negaki u allaqachon "yolg'on va zo'ravonlik dunyosidan o'z fikrlarida haqiqat dunyosiga ko'tarilgan va unda o'zini mustahkamlagan", garchi uning tabiiy mavjudligi hali ham johillar bilan o'ralgan. Va har safar, u bir narsani xayoliga keltirganida, unda ilohiy donolikning muhrini ko'radi. Axloqiy poklanish tasavvufga ruh pardasini tashlashga va nihoyat o'z ko'zlagan maqsadiga erishishga - Oliy Ilohiy Haqiqat yuzini o'ylashga imkon beradi. Ushbu bosqichda, agar prozelit uning mohiyatini Yaratuvchining namoyishi deb hisoblasa, ular orasidagi har qanday to'siq yo'qoladi. So'fiyni bu pozitsiyasini talqin qilib, Ibn Sino aslida insonning tabiiy va ilohiy jihatlarini birlashtirib, uni ilohiy mohiyatga yaqinlashtirdi.

Dissertatsiyaning "**Abu Ali Ibn Sino diniy-falsafiy qarashlariga aristotelizm va platonizmning ta'siri**" deb nomlangan to'rtinchi bobida Ibn Sinoning Arastu "Metafizika" sig'a sharh yozishdek mas'uliyatli mehnati, mutafakkirning teologik-falsafiy qarashlari tadqiq etilgan.

Arastuning "Metafizika" asari g'oyalar olami haqidagi Platon ta'limotini tanqid qilishdan boshlanishi bejiz emas. Platon ta'limotidan farqli o'laroq, u shakl va materiya ta'limotini ishlab chiqadi. Bu konsepsiya doirasida ruh va tananing birligi g'oyasini asosladi. Ruh va tananing o'zaro munosabatlari, aslida, materiya va shakl munosabatlarining ifodasidir. Qarashning farqli tomoni shundaki, dastlabki ikkita substansiya tirik mavjudotga nisbatan qo'llaniladi. Arastuning ruh haqidagi ta'limoti barcha tirik mavjudotlarga hayot uchun ma'no va maqsad beradigan "entelexiya" ("amalga oshirish") tamoyiliga asoslanadi. Ruhlar iyerarxiyasida eng yuqorisi komil inson ruhi bo'lib, u ham o'zgarmas va abadiy substansiya - aql bilan ta'minlangan. Ruh orqali Arastu insonning butun tabiiy mohiyatini tushuntiradi. Shuning uchun Arastu psixologiyasi antropologiyani yoki inson haqidagi ta'limotni boshlab bergan, axloq va siyosat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Verbek, Ibn Sinoning g'oyalarini tahlil qilib, u (Ibn Sino), birinchi navbatda, empirist emasligini yozadi: u inson idrokini hissiy harakatlar bilan bog'lamaydi va uning uchun his-tuyg'uning roli faqat faol ongdan kelib chiqadigan sezilarli shakllarni ruh tomonidan idrok etishga tayyorgarlik faoliyatida ko'rinadi. Verbekning fikriga ko'ra, Ibn Sino nominalist ham emas: umumiy terminologiya faqat alohida narsalarni guruhlash va tasniflashga imkon beradigan umumiy nomlar emas. Verbek Ibn Sinoning ham konseptualist emasligini tushuntiradi. Ma'lumki, universallar sezilarli narsalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi, ammo mantiq va haqiqat o'rtasidagi mosliklar faol ong tomonidan belgilanishini rad etib bo'lmaydi. O'z navbatida, substansial shakllar va hissiy idrok etiladigan predmetlar bundan kelib chiqadi.

³³ O'sha asar. - C.317

Ibn Sino ijodida bizni qiziqtirgan irfoniylar qarashlariga kelsak, Arastuning ruh, axloq, siyosat va poetika haqidagi ta'limotida aks etgan g'oyalari uning bevosita nazariy asosi bo'lgan. Bu sohalarining har biri haqida alohida fundamental asarlar yozilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Ibn Sinoning fanlarini tasniflash tizimi Arastu bilan bir xil. Tabiiyki, bu Ibn Sino ijodida, uning falsafiy qarashlarini, shu jumladan, inson haqidagi fikrlarini ifodalashga ta'sir qilmay qo'ymagan. Ibn Sino antropologik ta'limotining g'oyaviy manbalarini aniqlash uchun Arastuning asarlari bo'lgan ushbu manbalarni tahlil qilishda tasnifli yondashuv zarur. Bu holatning sababi shundan iboratki, uning ba'zi asarlari - masalan, "Axloq", "Ruh to'g'risida", "Siyosat", "Poetika" – sharq mutafakkiri tomonidan inson falsafasiga bag'ishlangan va o'z ta'limotlarini ishlab chiqishda bevosita manba bo'lib xizmat qilgan. "Mantiq", "Metafizika", "Fizika", "Ritorika" kabi asarlari inson muammosi bilan bog'liq, tabiat, kosmos va tirik mavjudotlar bilan uzviy aloqa va o'zaro bog'liqlik kabi masalalar keng tahlil etilgan.

Arastu axloqiy ta'limotining sharqona peripatetizm maktabi vakillariga ta'siri ham muhim. Bu yerda ham u o'zini "novator" sifatida ko'rsatgan, "axloq" tushunchasining o'zini ilmiy muomalaga kiritgan va mustaqil ilmiy fan sifatida yo'lga qo'ygan. Ibn Sino insonning ichki ruhiy dunyosi, hissiy kechinmalari va holatlarini ko'rib chiquvchi ruh haqidagi ta'limotdan farqli o'laroq, axloq insonning tashqi harakatlari - uning faoliyati va fe'l-atvori bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ochib berishga harakat qilgan. Uning asosiy maqsadi- odamlarni yuksak axloqiy xislatlari egasi sifatida tarbiyalash edi. Arastuning fikricha, bu ta'limotning mazmuni yoki asoslari, ikki turga: **axloqiy fazilatlar** (saxiylik, mardlik, insoflilik, rostgo'ylik va h.k.) va **dianoetik** (aqliy (tafukkur) o'rganish bilan shakllangan fazilatlar) fazilatlariga (donolik yoki mulohazalik, ehtiyotkorlik va boshqalar) bo'linadi.

Ibn Sinoning ayrim kichik axloqiy asarlarida, birinchi muallim axloqiy ta'limotining ta'siri ko'zga tashlanadi. Ushbu asarlarning ayrim joylarida u Arastu ta'limotiga xos fazilatlar bo'linishining tuzilmalaridan foydalanadi. Zamonaviylikni Arastu va Ibn Sinoni ajratib turadigan vaqt oralig'iga qaramay, axloqiy fikr tobora fazilatlar bo'lgan bu bebaho axloqiy monada (*Birlamchi, Yaratuvchi*) larga murojaat qilmoqda. Mutafakkirning bu karashlarida Alloh sifatleri xususida fikr bildirilganligi ko'zga tashlanadi.

Ibn Sinoning "Mabda' va Ma'ad" (Ko'tarilish va qaytish) risolasida ma'lum bir suhbatdosh inson hayotining mohiyati, maqsadi va mazmuniga oid to'rtta savol qo'yadi:

1. Insonning kelib chiqishi qanday va u bu dunyoga qanday kelgan?
2. Insonning maqsadi nima? Uning kelishiga sabab nima? Uning tug'ilishi ixtiyoriymi yoki zaruriymi?
3. Vafot etganidan keyin odam bilan nima sodir bo'ladi?
4. Inson ruhi tanadan ajralgandan keyin qanday holatda bo'ladi va uni narigi dunyoda nima kutmoqda?

Birinchi savolga – insonning kelib chiqish joyi va u bu dunyoga qayerdan kelganligi haqidagi savolga Ibn Sino quyidagicha javob beradi: biz (ya'ni insoniyat)

tashqi dunyoga bizga noma'lum bo'lgan dunyodan keldik³⁴. Ibn Sino insonning kelib chiqishi masalasini dunyoning ko'p qismlarga bo'linishi mavjudligi bilan bog'laydi. Umumlashgan shaklda ular asosan ikki dunyo: tashqi va ichki olam bilan ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, birinchisi – transsendent dunyo, ikkinchisi – paydo bo'lish va zarurat dunyosidir.

Ibn Sino boshqa manbalarga ham murojaat qiladi, bu manbalarga ko'ra dunyo uch qismga bo'linadi: dunyolarning birinchisi ongli dunyo, ikkinchisi xayoliy, ya'ni shakllar dunyosi va uchinchi hissiy-jismoniy dunyo bilan ifodalanadi. Ongning ruhiy dunyosi shakl va materiyadan mahrum bo'lgan farishtalarning oliy dunyosi va ruhlar dunyosi deb nomlanadi. Xayoliy dunyo oqilona va hissiy dunyo o'rtasida joylashgan quyi farishtalar, arvohlar va ruhlar dunyosi sifatida tanilgan. Unga materiya qo'shilmagan holda faqat shakl berilgan. Farishtalar, narsalar olami, paydo bo'lish va halokat olami deb ataladigan hissiy-jismoniy olam materiya va shaklga ega bo'lib, inson, hayvon va o'simliklar o'sadigan joydir.

Dissertant fikricha, tasvirlanayotgan dunyolar orqali Ibn Sino insonning kelib chiqishi haqidagi savolga javob berishga harakat qiladi. Unda u insonning ilohiy kelib chiqishi, ruhining oliy ilohiy substansiyalar bilan bog'liqligi haqida ma'lumot beradi. Bu dunyoga ong va xayoliy dunyo orqali o'ziga noma'lum bo'lgan ilohiy dunyodan tashrif buyurdi va erdagi dunyo chegaralariga etdi. Ammo bu ko'rinadigan dunyo uning vaqtinchalik yashash joyidir. U nozil qilingan haqiqiy dunyoga qaytishga intilishi kerak. Ammo qaytishdan oldin, inson bu yerdagi dunyoda bo'lishini oqlashi kerak. Bundan: "Inson nima uchun bu dunyoga keldi?", "Buning sababi nima edi?", "Bu odamning kelishi ixtiyoriymi yoki majburiymi?"³⁵ kabi savollar kelib chiqadi.

Ushbu savollarga javob Ibn Sinoning inson haqidagi esxatologik mulohazalarining asosiy leytmotividir. U ezgu amallar bilan erishilgan inson ruhini poklashga, uning ma'naviy mohiyatini ziyoli ilmlar nurlari bilan yoritishga maqsad qilgan. "Bu dunyoga kelishimiz bizning xohishimiz va istagimiz emas. Beixtiyor kelib yashab, beixtiyor biz uni tark etamiz. Biz bu dunyoga ruhimizni poklash uchun keldik"³⁶. Shunday qilib, inson ruhi o'zini moddiy tanadan ozod qilib, ruh tananing asosiy hayvon kuchlaridan xalos bo'lishi sharti bilan u yuborilgan joyga abadiy mohiyat va saodat dunyosiga qaytadi; aks holda, jahannam eshiklari uni kutmoqda, u erda abadiy azob va qiynalishlarga mahkum bo'ladi. Ibn Sinoning insonni o'z xatti-harakatlari, qilmishlari, atrofdagilarga munosabati, uning hozirgi va kelajak oldidagi mas'uliyati haqida o'ylashga majbur etuvchi bu gaplari yuksak axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Insonni takomillashishida va "uning ruhini bilishda Qur'onning muqaddas matnlari" va shariat qonunlari ham, shuningdek nazariy ongning qoidolari ham bir xil qabul qilinadi. Butun O'rta asrlarni (musulmon Sharqida ham, Yevropa g'arbida ham) keskin qamrab olgan ma'naviy hayot- ong va imon o'rtasidagi, haqiqat va ilohiy vahiyni muqaddasligi o'rtasidagi o'sha dunyoqarashning to'qnashuvini Ibn Sino o'zining ilmiy asarida yoritishga harakat qiladi.

³⁴ Ибн Сино. Мабдаъ ва маод (Исход и возврат). Осори мунтахаб. Ҷ.2.- Душанбе: Ирфон. - 1980. - С.112

³⁵ O'sha asar. C.112

³⁶ O'sha asar. C.112

Nemis olimi S. Gottard fikricha: “Ibn Sino Aflotun va Arastuning oʻrta asrlarda va yangi davrda ruh nazariyasi haqidagi gʻoyalarini ilgari surishda muhim rol oʻynagan. Uning soʻzlariga koʻra, Aflotun va Arastuning Ibn Sinoning ruh nazariyasiga taʼsirini aniqlash mumkin, ammo u ularning gʻoyalari Ibn Sino tomonidan jiddiy ishlab chiqilganligini, keyin ular oʻz navbatida Dantega yangi shaklda taʼsir koʻrsatganligini tushuntiradi”.³⁷

